

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA MUSIQA
MADANIYATI FANI BO‘YICHA NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA
ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN FOYDALANILADIGAN TEST
TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI FANI BO'YICHA NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINОВI UCHUN FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya musiqa madaniyati fani bo'yicha nomzodlarni ishga qabul qilish sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi musiqa madaniyati fani mutaxassislarining fan bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat.

Test topshiriqlari kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo'llash, muammoli holatni tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlashga yo'naltiriladi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 15-iyundagi 203-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i.

III. Baholash qamrovi

Musiqa madaniyati fani bo'yicha 40 ta test topshirig'i taqdim etiladi va ularni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshiriqlarida yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) hamda ketma-ketlikni talab qiladigan (Y3) yopiq turdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim hamda ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

**Mutaxassislik fanidan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi
va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti**

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1.Musiqa savodi		

1.1. Musiqa savodi	- musiqa savodi va nazariyasini bilish ; - alteratsiya belgilarini bilish; - alteratsiya belgilarini farqlay olish; - tovushlar engarmonizmini bilish; - tovushlar engarmonizmini farqlay olish; - tovush cho‘zimini uzaytiruvchi belgilarni aniqlay olish; - Musiqa o‘lchovlarini farqlay olish; - templarni bilish; - intervallarni bilish; - intervallarni aniqlay olish; - lad pog‘onalarini bilish; - tonalliklarni aniqlay olish - uchtovushlik tuzilishini aniqlay olish; - dominantseptakkord tuzilishini aniqlay olish; - xalq ladlarini bilish.	15
2. Musiqiy janrlar		
2.1. Musiqiy janrlar	- musiqiy janrlarning turlarini bilish va farqlash; - musiqiy janrlarning turlarini farqlay olish; - janrlar orasidagi o‘xshashlik topa olish; - janrlar orasidagi farqlarni topa olish.	4
3. Maqom san’ati		
3.1. Maqom san’ati	– maqom san’atini bilish; – maqom turlarini bilish; – maqom bo‘limlarini bilish; – maqom bo‘limlarini farqlay olish; – maqom kuylarini bilish; – maqom kuylarini tahlil qilish.	6
4. Bastakorlik va kompozitorlik ijodi		
4.1. Bastakorlik va kompozitorlik ijodi	– o‘zbek bastakorlarini bilish; – rus kompozitorlarining hayoti va ijodini bilish; – rus kompozitorlarining asarlarini bilish; – xorij kompozitorlarini bilish; – xorij kompozitorlarining asarlarini bilish; – o‘zbek bastakorlarini asarlarini farqlay olish; – rus kompozitorlar asarlarini tahlil qilish; – rus kompozitorlarining asarlarini aniqlay olish; – xorij kompozitorlarini farqlay olish; –xorij kompozitorlarining asarlarini tahlil qilish.	5

5. Sharq xalqlarining mumtoz musiqasi		
5.1. Sharq xalqlarining mumtoz musiqasi	– sharq xalqlarining mumtoz musiqasini bilish; – sharq xalqlarining cholg‘ularini bilish; – sharq xalqlarining janrlarini bilish; – sharq xalqlarining mumtoz musiqasini farqlay olish; – sharq xalqlarining cholg‘ularini taqqoslay olish; – sharq xalqlarining janrlarini farqlay olish.	5
6. Musiqa cholg‘ulari		
6.1. Musiqa cholg‘ulari	– musiqa cholg‘ularining nomlarini bilish; – cholg‘ularining guruhlarini aniqlay olish; – cholg‘ularining registrini aniqlay olish; – cholg‘ularining guruhlarini farqlay olish.	5
	Jami	40 ta

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish
2	Qo‘llash	Bilim, tushunchalarni kontekstlarda qo‘llay olish
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javob uchun 2,5 ball, noto‘g‘ri javob uchun ball berilmaydi. Umumiy eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Test topshiruvchi imtihonga shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan keladi va test tashkilotchisi tomonidan belgilangan tartibga rioya qiladi. Imtihon boshlanishidan

oldin test topshiruvchilarga topshiriqlarni bajarish hamda javoblarni belgilash tartibi tushuntiriladi.

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet, quloqchin, elektron eslatma, ruxsat etilmagan bosma yoki elektron materiallardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish va nazoratchi ko'rsatmalariga amal qilmaslik taqiqlanadi. Qoidabuzarlik aniqlanganda, u belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va test topshiruvchi imtihondan chetlashtirilishi mumkin.

VI. Musiqa madaniyati fanidan tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Musiqa. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. U. U. Mirzaxmedov, N. P. Cheryomuxina, A. M. Abdullayev. 2024. Novza.
2. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri S. Begmatov, "G'afur G'ulom ijodiy uyi" 2017.
3. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'g'ri nashri, Oqilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov, "G'afur G'ulom" 2017.
4. "O'zbek musiqa tarixi". S. Begmatov Toshkent-2018 "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018.
5. "Musiqa tarixi". O. A. Ibrohimov, G'. M. Xudoyev Toshkent - 2018 "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
6. "Musiqaning elementar nazariyasi" Qadamboy Rahimov "Musiqa" nashriyoti Toshkent 2007.
7. "Maqom asoslari" Oqilxon Ibrohimov Toshkent "Yuron-Iqbol"- 2018.
8. "Xorijiy musiqa adabiyoti" A.X.Trigulova Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2008.
9. "Rus musiqa tarixi" Lola Urmanova "Musiqa" nashriyoti Toshkent 2011.
10. "Musiqa nazariyasi" V. Vaxromyev 1962.

VII. Eslatma

Test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan manbalarda aks etgan qonunchilik, kasbiy mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Biroq topshiriqlar manbalardan to'g'ridan-to'g'ri olinmaydi. Test topshiriqlari talabgorning kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, bilimini amaliyotda qo'llash va asosli qaror qabul qilish ko'nikmalarini baholashga qaratiladi.